



**“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA
ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI”
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya**



UO‘T:633.11/37;631.52

**QASHQADARYO VILOYATI SHAROYITIDA TRITIKALE NAV VA
GENOTIPLARINING BIOMETRIK KO‘RSATGISHLARINI BAHOLASH**

¹Jalg‘asbaev Arziwbay Biysenbay o‘g‘li

¹Raximov Jamshid Xayitmurodovich

²Oybek Anvarovich Omonov

³Azizov Bekzod G‘ayrat o‘g‘li

¹Tayanch doktorant, Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

²Qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar Milliy markazi direktori o‘rinbosari

³Qishloq xo‘jalik fanlari bo‘yicha falsafa doktori, laboratoriya mudiri, Janubiy dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Tel: +998886571228

e-mail: arziwbayjalgasbaev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19233861>

Annotatsiya: Maqolada Qashqadaryo viloyati osh tusli bo‘z tuproqlar sharoyitida yetishtirilayotgan tritikale nav va genotiplarining biometrik ko‘rsatkishlari bo‘yicha tadqiqot natijalari ma‘lumotlari keltirilgan. Izlanishlardan ma‘lum bo‘ldiki, biometrik ko‘rsatkichlar bo‘yicha tritikalening raqobat ko‘chatzorida o‘rganilgan 20 ta nav va tizmalar orasida o‘simlik bo‘yi uzunligi bo‘yicha 11 ta tizmalarda andoza nav(118 sm)dan uzun bo‘lganligi (3-14 sm gacha) aniqlandi. Oxirgi bo‘g‘in uzunligi bo‘yicha 16 ta tizma (38-49 sm) yuqori ko‘rsatkichga ega ekanligi tadqiqot natijalarida kuzatildi. Boshqoq uzunligi bo‘yicha 13 ta tizma (13-16 sm), boshqoqchalar soni bo‘yicha 12 ta tizma (30-36 dona) va 16 ta tizmada (9 ball) yotib qolishga chidamliligi bo‘yicha andoza navdan yuqori bo‘lgan ekanligi tadqiqot natijalarida aniqlandi va seleksiyaning keyingi bosqichlariga o‘tkazildi.

Kalit so‘zlar: tritikale nav va tizmalar, o‘simlik bo‘yi, oxirgi bug‘in uzunligi, boshqoq uzunligi, boshqoqchalar soni, yotib qolishga chidamlilik, raqobat ko‘chatzori.

Abstract: The article presents the results of a study on the biometric indicators of triticale varieties and genotypes grown in the conditions of loamy gray soils of the Kashkadarya region. The research showed that among the 20 varieties and ridges of triticale studied in a competitive nursery, 11 ridges were longer (by 3-14 cm) than the standard variety (118 cm). The results of the study showed that 16 ridges (38-49 cm) had a higher indicator in terms of the length of the last joint. The research results revealed that the variety was superior to the standard variety in terms of spike length by 13 ridges (13-16 cm), in terms of spike number by 12 ridges (30-36 units), and in terms of lodging resistance by 16 ridges (9 points), and was transferred to the next stages of selection.

Keywords: triticale varieties and lines, plant height, last tiller length, spike length, number of spikelets, lodging resistance, control seedling. competitive nursery

Аннотация: В статье представлены результаты исследования биометрических показателей сортов и генотипов тритикале, выращенных в условиях серосуглинистых почв Кашкадарьинской области. Исследование показало, что среди 20 сортов и гребней тритикале, изученных в конкурентном питомнике, 11 гребней были длиннее (на 3-14 см), чем стандартный сорт (118 см). Результаты исследования показали, что 16 гребней (38-49 см) имели более высокий показатель по длине последнего сочленения. Результаты



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



исследования выявили, что сорт превосходит стандартный сорт по длине колоса на 13 гребней (13-16 см), по количеству колосов на 12 гребней (30-36 единиц) и по устойчивости к полеганию на 16 гребней (9 баллов) и был переведен на следующие этапы селекции.

Ключевые слова: сорта и гребни тритикале, высота растений, длина последнего побега, длина колоса, количество колосков, устойчивость к полеганию, конкурентный питомник.

Kirish. O‘zbekistonda tritikale keng tarqalgan yangi oziq-ovqat, yem-xashak ekini va boshqa noqulay sharoitlarga moslashuvchan yani yotib qolishga, kaslliklarga chidamli o‘simlik, tritikale donini saqlash usullarini samarador usullari tadbiq etish dolzarb masala hisoblanadi [3,5].

Tritikale ko‘p hollarda hosildorligi bo‘yicha bug‘doydan ustun turadi. Ammo, javdar boshog‘ining ko‘p boshqochaliligi bilan bug‘doyga xos ko‘p donli boshqochalilikni birlashtirishni amalga oshirish qiyin. Tritikalening boshog‘i uzun, lekin boshqochalardagi donning soni bug‘doyga nisbatdan kam bo‘ladi [1].

Tadqiqot natijalarga ko‘ra, Samarqand viloyatining Payariq tumani sharoitida yetishtirilgan tritikalening Do‘stlik GulDU, Sardor va Prag navlari orasida bitta boshqoq uzunligi bo‘yicha GulDU 15,3 smni tashkil etib, boshqa navlardan uzunligi bilan ajralib turgan. Boshqodagi donlar soni bo‘yicha Sardor navida 89 donaligi aniqlangan. Boshqodagi don massasi bo‘yich GulDU va Sardor navida 1,7 g ni tashkil qilib, bu ko‘rsatkich Do‘stlik va Prag navlaridan yuqori ekanligini kuzatilgan [2].

Materiallar va uslublar. Tadqiqotda tajribalarni biometrik tahlillari “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (2014) [5] bo‘yicha olib borildi.

Natijalar va munozara. Erta muddatlarda ekib o‘rganilayotgan tritikale nav va tizmalarining biometrik o‘lchov ishlari olib borildi. Tritikale hosil qilish borasida ko‘p mamlakatlar seleksion muassasalarida katta ilmiy izlanishlar o‘tkazilmoqda. Bu ishlar Meksika, Vengriya, Bolgariya, Shvetsiya, Yaponiya, Kanada, AQSh, Rossiya va boshqa mamlakatlarda keng miqyosda olib borilmoqda, shu bilan birgalikda O‘zbekistonda ham bir necha olimlar tomonidan ish olib borilmoqda.

1-jadval

Tritikale nav va tizmalarining biometrik ko‘rsatkichlari

№	Nav va tizmalar nomi	O‘simlik bo‘yi, sm	Oxirgi bo‘g‘in uzunligi, sm	Boshqoq uzunligi, sm	Boshqochalar soni, dona	Yotib qolishga chidamliligi, ball
1	Sardor (andoza)	118	32	10	22	9
2	KR23-TCYT-1	121	33	10	26	9
3	KR23-TCYT-2	101	33	12	28	9
4	KR23-TCYT-3	106	41	10	22	9
5	KR23-TCYT-4	118	37	14	36	7
6	KR23-TCYT-5	124	39	14	30	9
7	KR23-TCYT-6	118	39	12	30	7
8	KR23-TCYT-7	127	44	13	36	5
9	KR23-TCYT-8	131	40	16	36	9



“SHIMOLIY MINTAQALARDA QISHLOQ XOJALIGINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI VA ULARNING INNOVATSION ECHIMLARI” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



10	KR23-TCYT-9	132	48	11	24	9
11	KR23-TCYT-10	106	44	13	30	9
12	KR23-TCYT-11	114	38	16	32	7
13	KR23-TCYT-12	113	49	11	20	9
14	KR23-TCYT-13	132	48	15	36	9
15	KR23-TCYT-14	90	28	13	32	9
16	KR23-TCYT-15	125	38	15	32	9
17	KR23-TCYT-16	129	38	10	26	9
18	KR23-TCYT-17	109	29	14	32	9
19	KR23-TCYT-18	126	31	11	24	9
20	KR23-TCYT-19	126	38	11	30	9
	eng yuqori	132	49	16	36	9
	o'rtacha	119	38	13	30	9
	eng pasti	90	28	10	20	5

Tritikalening o'rganilgan nav va tizmalari biometrik taxlillar, ya'ni o'simlik bo'yi, oxirgi bo'g'in uzunligi, boshqoq uzunligi, boshqoqdagi boshqoqchalar soni va yotib qolishga bardoshli ko'rsatkichlari dala sharoitida o'rganilganda o'simlik bo'yi uzunligi andoza Sardor navida o'rtacha 118 sm bo'lgan bo'lsa, 6 ta tizmada andoza navdan past bo'lganligi, 2 ta tizma andoza navga teng bo'lganligi va qolgan 11 ta tizmalarda andoza navdan uzun bo'lganligi (3-14 sm gacha) aniqlandi. Shu bilan birga natijalarga ko'ra, o'simlikning oxirgi bo'g'in uzunligi bo'yicha tritikalening andoza Sardor navida 32 sm uzunlikka ega bo'ldi, tizmalarni andozaga taqqoslaganda 3 ta tizma past, 16 ta tizma yuqori ko'rsatkichga ega ekanligi tadqiqotda kuzatildi.

Boshqoqchalar soni bo'yicha nav va tizmalar 20 donadan 36 donagacha bo'lganligi aniqlandi. Bunda andoza Sardor navi 22 dona boshqoqchaga egaligi kuzatildi va bunga nisbatan KR23-TCYT-7, KR23-TCYT-8 va KR23-TCYT-11 tizmalari 36 dona boshqoqcha bo'lganligi aniqlandi va shu bilan birga yotib qolishga bardoshliligi o'rganilganida andoza navi va 16 ta tizma 9 ball ya'ni yotib qolishga o'ta chidamli hisoblangan bo'lsa, 3 ta tizmalarda 7 ball bilan baholandi, ya'ni qisman yotib qolishga moyil ekanligi aniqlandi (1-jadval).

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, tritikale nav va genotiplarining biometrik ko'rsatkichlar bo'yicha tadqiqot natijalariga ko'ra biotik faktorlarga chidamlilik va hosildorlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lganlarini ajratib olishga yordam berdi. Bunda oxirgi bug'in uzunligi qurg'oqchilikka chidamlilikni belgilab beradi. Hosildorlikni belgilashda boshqoqdagi donlar soni juda katta ahamiyatga ega. Biometrik ko'rsatkichlarda yuqori natija ko'rsatgan tizmalar tanlab olinib, seleksiyaning keyingi bosqishlariga sinovga o'tkazildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdukarimov D.T. "Tritikale seleksiyasi" // Donli ekinlar seleksiyasi va urug'chiligi. Toshkent -2010. B. 84-101.
2. Raimqulova M.M., Sanakulov A.L. "Tritikale navlarining biometrik ko'rsatkichlari" // Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar ilmiy jurnali. №4. 2024 yil. B. 49-52.
3. Agro olam. Uz. // Tritikale o'simligining yetishtirish sirlari va uning serhosilligi.
4. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari // O'zPITI. Toshkent-2014. B. 159-165.
5. [https://uz. Upwiki.one](https://uz.Upwiki.one) Agronomiya – Vikepidiya yangilanish.